

## XALQARO TIJORAT ARBITRAJI QARORLARINI TAN OLISH VA IJROGA QARATISHDAGI MUAMMOLAR

Bahodirova Nozima Izzat qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti

Xalqaro huquq va siyosiy huquqshunoslik fakulteti 3-kurs talabasi

**Annotatsiya :** Xalqaro tijorat arbitraji qarorlarini tan olish va ijroga qaratishdagi bir qator huquqiy, protsessual va siyosiy muammolar bilan murakkablashishi mumkin. Ushbu maqola xalqaro arbitraj qarorlarini turli davlatlarda tan olishda duch kelinadigan asosiy to'siqlarni yoritadi. Muammolar orasida milliy qonunchilikdagi farqlar, Nyu – York konvensiyasining noto'g'ri talqini, jamoat tartibi sababli qarorlarni rad etish, milliy sudlarning aralashuvi va texnik protsessual qiyinchilik mavjud. Siyosiy va iqtisodiy omillar ham arbitraj qarorlarining ijrosiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Maqola xalqaro arbitraj samaradorligini oshirish uchun xalqaro hamkorlik va milliy qonunchiliklarni uyg'unlashtirish zarurligini ta'kidlaydi. Shuningdek, jamoat tartibi sababli qarorlarning rad etilishi va davlatlarning iqtisodiy yoki siyosiy manfaatlari ham muhim rol o'ynaydi. Ushbu maqolada xalqaro tijorat arbitraji tizimining barqarorligini ta'minlash uchun milliy va xalqaro darajada ko'proq hamkorlik va islohotlar zarurligini ta'minlaydi.

**Kalit so'zlar :** Tijorat arbitraji, arbitraj qarorlarini tan olish, arbitraj qarorlarini rad etish, arbitraj qarorlarini ijro etish, Nyu-York konvensiyasi, milliy qonunchilik, jamoat tartibi, milliy sudlarning aralashuvi, huquqiy muammolar, protsessual to'siqlar, iqtisodiy va siyosiy omillar, xalqaro nizolar, huquqiy uyg'unlashtirish, investitsiya nizolari, arbitraj ijrosi, huquqiy talqinlar.

### KIRISH

Xalqaro tijorat arbitraji bugungi kunda transmilliy savdo va biznes nizolarini hal qilishning muhim vositasi sifatida tobora keng qo'llanilib, rivojlanib kelmoqda. Arbitrajning tezkorligi, mustaqillik va maxfiylik kabi xususiyatlari uni ko'p tomonlama tijorat nizolarini hal qilishda qulay vositaga aylantiradi. Biroq, xalqaro tijorat arbitraji qarorlarini tan olish va ijroga o'tkazish jarayoni murakkab bo'lib, ko'plab davlatlarda bir qator huquqiy va amaliy muammolar mavjud. Ushbu maqolada xalqaro tijorat arbitraji qarorlarini tan olish va ijroga qaratishdagi asosiy qiyinchiliklar va ularni hal qilish yo'llari ko'rib chiqiladi. Mavzuni to'liq yoritishdan oldin xalqaro arbitraj nima ekanligini bilib olsak!

Xalqaro arbitraj – xalqaro savdo va tijorat nizolarini sud tizimidan tashqarida hal etishning muqobil usuli bo'lib, unda nizolarni mustaqil va vakolatli hakamlar hay'ati ( arbitraj ) ko'rib chiqadi va yakuniy qaror qabul qiladi. Bu nizoni hal qilishning xususiy va maxfiy shakli bo'lib, davlat sudlaridan farqli o'laroq, taraflar o'zaro kelishuv asosida jarayonni tashkil qilishadi, hakamlarni tayinlashadi va o'z nizolarini ko'rib chiqish qoidalarini belgilaydilar. Arbitraj atamasining umume'tirof etgan yagona bir ta'rifi bo'lmasada, ayrim tadqiqotchi olimlar arbitrajning muhim jihatlari bo'yicha ba'zi bir to'xtamlarga kelishgan. Arbitraj – tribunal tomonidan taraflarning bitimi asosida o'rtadagi nizoni majburiy ko'rinishdagi qaror chiqarish orqali hal etish jarayoni deb hisoblashadi. Shu bilan birga arbitraj „ADR –

Alternative dispute – алтернативное урегулирование споров” ning ko’pchilik xususiyatlarga ega bo’lsa ham, “ADR” atamasi arbitrajni to’liq qamrab olmaydi. Bunga mutaxasislarning fikri bo’yicha qaraydigan bo’lsak, “arbitraj - nizolarni hal etishning sodda usuli. Qisqacha aytganda , sudning ishtirokisiz nizo yuzasidan yakuniy va majburiy tusdagi qaror olishning samarali yo’lidir” . Professor. M. Mozes so’zi bilan aytganda - “arbitraj milliy sudlarda ijro etish mumkin bo’lgan yakuniy va majburiy qaror qabul qilishni o’z ichiga oluvchi xususiy sud tizimi...” – hisoblanadi . Hozirgi vaqtga kelib xalqaro arbitraj tijoratda juda keng qo’llanilib kelinmoqda , chunki ko’plab kompaniyalar milliy sudlar o’rniga xolis va tezkor arbitraj jarayoniga tayanishni afzal ko’rishadi . Xalqaro arbitrajning paydo bo’lishining tarixiy omillari biznes jarayonlari uning harakatlanuvchisi bo’lgan yuqori darajada rivojlangan sivilizatsiyalarning huquqiy munosabatlarini murakkablashtirishning umumiy tendensiyasiga mos keladi . Sivilizatsilarning turli darajalarida joylashgan murakkab transmilliy biznes majburiyatlarni to’g’ri bajarish bilan bog’liq tushunmovchiliklar ehtimoli ortishi bilan tavsiflanadi , uning hal etilishi xalqaro arbitraj deb ataladi , bu esa tabiatan samaraliroq hisoblanadi , milliy sudlarga qaraganda . Shu munosabat bilan yuridik doktrinada va huquqshunoslar o’rtasida xalqaro arbitraj qarorlarini bajarish bilan bog’liq xavflarni kamaytirish strategiyalari va tegishli masalalar bo’yicha munozalar davom etib kelmoqda . Xalqaro tijorat arbitrajida qaorning qanday turlari bor ? Qaror turlari : yakuniy qaror , qisman va vaqtinchalik qarorlar , kelishilgan qarorlar va yana eshituv�iz qaror kabi turlari mavjud . Endilikda bu qaror turlarini birma – bir ko’rib chiqsak .

Yakuniy qaror bu - taraflar o’rtasidagi qolgan barcha nizolarni hal qiladigan arbitraj sudi tarafidan beriladigan qarorga nisbatan qo’llaniladi . Muhim oqibatlar aynan yakuniy qarordan kelib chiqadi . Yakuniy qaror arbitraj jarayonining yakuniy bosqichida qabul qilinadi va nizoning barcha jihatlari bo’yicha hal qiluvchi qarorni beradi . Ushbu chiqarilgan qaror tomonlar uchun majburiy hisoblanadi va odatda ijro etish uchun tegishli davlat organlariga taqdim etilishi mumkin . Masalan , tomonlar o’rtasidagi asosiy nizoni hal qiluvchi yakuniy qaror , unda har ikkala tomonning da’volari ko’rib chiqiladi va mablag’ning qaytarilishi , tovon to’lashi yoki boshqa majburiyatları belgilanadi .

Qisman qarorlar va vaqtinchalik qarorlar xalqaro tijorat arbitraji jarayonida muhim o’rin tutadi . Bu qarorlar nizoning yakuniy qarorga qadar samarali boshqarilishini va taraflar manfaatlarining himoya qilinishini ta’minalashga yordam beradi . Qisman qarorlar – nizoning faqat muayyan qismi bo’yicha chiqarilgan qarorlar . Bu qarorlar barcha masalalar bo’yicha yakuniy xulosa bermasligi mumkin , balki nizoning muhim qismlarini tezroq hal qilish uchun qabul qilinadi . Bu qaror turi quyidagi xususiyatlarga ega :

- To’liq yakuniy emas : qisman qarorlar odatda barcha masalalar bo’yicha yakuniy qaror chiqarmaydi , faqat ba’zi aniq masalalarni hal qiladi .

- Ijro etilishi mumkin : ba’zi hollarda qisman qarorlar ham ijro etilishi mumkin. Masalan , muayyan moliyaviy to’lovlar yoki majburiyatlar belgilangan vaqtda . Masalan , agar tomonlar o’rtasidagi nizoda moliyaviy da’vo va intellektual mulk huquqlariga oid masalalar mavjud bo’lsa , hakamlar dastlab faqat moliyaviy jihatlar bo’yicha qaror qabul qilishi mumkin . Keyinchalik esa bu boshqa masalalar bo’yicha qarorlar chiqaradi .

- Samaradorlikni oshiradi : agar nizoning bir qismo aniq va dalillarga asoslangan bo’lsa , hakamlar kengroq bahslardan oldin ushbu masalani qisman hal qilishlari mumkin .

Endi xalqaro tijorat arbitraji qarorlarini tan olish va ijro qilishda duch kelinadigan asosiy huquqiy muammolar va ularga oid xalqaro me'yorlar tahlil qilinadi:

1. Nyu-York Konvensiyasi (1958 - yil):

Xalqaro tijorat arbitrajiga oid qarorlarni tan olish va ijro qilishda asosiy xalqaro huquqiy hujjat bu 1958 - yilgi xorijiy arbitraj qarorlarini tan olish va ijro etish to‘g‘risidagi Nyu -York konvensiyasidir. Ushbu konvensiya xalqaro savdo nizolarini hal qilishda asosiy rol o‘ynaydi va unga ko‘ra, arbitraj qarorlarini tan olish va ijro etish bo‘yicha standartlar belgilangan. Konvensiya ikki asosiy jihatni qamrab oladi:tan olish va ijro qilish majburiyati. Konvensiya qatnashchilari xorijiy arbitraj qarorlarini tan olish va ularni milliy sudlar orqali ijro etish majburiyatini oladilar. Rad etish asoslari: Arbitraj qarorini tan olish va ijro qilishdan bosh tortish mumkin bo‘lgan holatlar ham belgilangan. Masalan, qarorning jamoat tartibiga zidligi yoki tomonlar o‘rtasida to‘g‘ri jarayon o‘tkazilmaganligi kabi bo‘lgan holatlarda rad etilishiga yoki bir o‘rinda ijro etilmasligiga asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin .

2. Milliy qonunchilikdagi farqlar :

Nyu-York konvensiyasiga qaramay, milliy qonunchiliklar o‘rtasidagi farqlar xalqaro arbitraj qarorlarini tan olish va ijro etishni murakkablashtiradi. Ayrim davlatlarda arbitraj qarorlarini milliy qonunchilik asosida tan olish yoki ijro qilish uchun qo‘sishimcha talablar qo‘yiladi. Masalan, Fransiya, AQSh, Rossiya kabi davlatlarda arbitraj qarorlarini tan olishning huquqiy mexanizmlari milliy qonunchilikning turlicha talqinlariga bog‘liq. Bu borada davlatlar o‘rtasida hamjihatlik mavjud bo‘lmasa, arbitraj jarayonining samaradorligi pasayadi. Masalan, bir davlat arbitraj qarorini tan olishdan bosh tortgan bo‘lsa, u holda xalqaro savdo yoki investitsiya nizolari yechilishi ancha murakkab bo‘lishi mumkin.

3. Jamoat tartibi (Public Policy):

Nyu-York konvensiyasining V muddasida : davlatlar arbitraj qarorini tan olish va ijro etishdan bosh tortishlari mumkin bo‘lgan asoslar keltirilgan. Ulardan biri – jamoat tartibiga zidlik. Mazkur me'yor davlatlarga xalqaro arbitraj qarorlarini tan olmaslik huquqini beradi, agar bu qaror ularning milliy qonunchiligidagi yoki jamoat manfaatlariga zid deb topilsa. Biroq, jamoat tartibining talqini juda keng bo‘lib, ayrim davlatlar ushbu me'yordan o‘z manfaatlarini himoya qilishda foydalanishi mumkin. Fransiyada yoki Germaniyada "jamoat tartibi" nisbatan tor talqin qilinadigan bo‘lsa, ba’zi boshqa davlatlarda bu tushuncha kengroq qo‘llaniladi. Shu bois, jamoat tartibi xalqaro arbitraj qarorlarini tan olish va ijro etishdagi asosiy to‘siqlardan biri hisoblanadi.

3. Arbitraj qarorlarini ijro etishning kechikishi :

Xalqaro arbitraj qarorlarini ijro etishda sud tizimlarining sekin ishlashi ham katta muammo hisoblanadi. Ayrim davlatlarda sud tizimining samaradorligi past bo‘lib, bu arbitraj qarorlarini tezkor ijro etish imkoniyatini cheklaydi. Masalan, Italiya, Hindiston kabi mamlakatlarda sud tizimi orqali arbitraj qarorlarini ijro etish jarayoni ko‘p vaqt olishi mumkin, bu esa tomonlarning xarajatlarini oshiradi va jarayonni murakkablashtiradi.

4. Korrupsiya va siyosiy ta'sir :

Ba’zi davlatlarda arbitraj qarorlarini tan olish va ijro etishda siyosiy ta'sir yoki sud tizimidagi korrupsiya muammosi mavjud bo‘lishi mumkin. Bu, ayniqsa, siyosiy yoki iqtisodiy jihatdan ta’sirchan tomonlar o‘rtasida nizolar yuzaga kelganda ko‘zga tashlanadi. Afrika va ba’zi Osiyo davlatlarida ushbu holatlar tez-tez uchrab turadi. Korruptsiya xalqaro arbitraj

qarorlarini ijro etish jarayoniga to'sqinlik qilishi, sudlarning xolisligi va mustaqilligini buzishi mumkin.

5. Huquqiy tizimlardagi tafovutlar :

Turli davlatlar huquqiy tizimlarining xilma-xilligi arbitraj qarorlarini tan olish va ijro etishda qiyinchilik tug'diradi . Ayrim mamlakatlarda xalqaro arbitraj qarorlarini tan olish bo'yicha maxsus qonunlar mavjud bo'lsa -da , boshqa davlatlarda bunday qonunlar yetarlicha ishlab chiqilmagan . Bundan vaziyatlarda xalqaro standartlarni kengroq qo'llash muqobil variant hisoblanadi . Masalan , Nyu – York konvensiyasini imzolagan davlatlar o'rtasida o'zar kelishuvni kuchaytirish va qo'llaniladigan qonunlarning standartlashuvini oshirish kerak .

6. Hukmni qayta ko'rib chiqish:

Ba'zi davlatlarda arbitraj qarorlarini milliy sudlar tomonidan qayta ko'rib chiqish imkoniyati mavjud. Bu esa arbitraj jarayonining tezkorligi va mustaqilligiga salbiy ta'sir qiladi. Masalan, ba'zi davlatlarda milliy sudlar arbitraj qarorlarining muvofiqligini to'liq qayta ko'rib chiqishi mumkin, bu esa arbitrajning maqsadi bo'lgan tezkor va samarali nizolarni hal qilish jarayoniga zid keladi. Rossiyada milliy sudlar ayrim hollarda arbitraj qarorlarini qayta ko'rib chiqishi va ularning ijrosini kechiktirishi mumkin.

7. Iqtisodiy va moliyaviy cheklovlar :

Ayrim davlatlar iqtisodiy cheklovlar tufayli qarorlarni tan olish yoki ijro etishda qiyinchilikka duch keladi . Xususan , davlatlar jiddiy moliyaviy qiyinchiliklarga duch kelgan taqdirda qarorlarni ijro etishga qodir bo'lmasligi mumkin . Bunday vaziyatda davlatlararo moliyaviy yordam dasturlarini yaratish va iqtisodiy cheklovlarni kamaytirish uchun xalqaro tashkilotlar tomonidan qo'llab – quvvatlash kerak bo'ladi .

Xulosa:

Xalqaro tijorat arbitrajining afzalliklariga qaramay, uning qarorlarini tan olish va ijro qilishda huquqiy hamda amaliy muammolar mavjud. Xalqaro tijorat arbitraji qarorlarini tan olish va ijro etishdagi muammolar bugungi kunda xalqaro savdo va investitsiyalarga katta ta'sir ko'rsatmoqda . Nyu - York konvensiyasi bu borada asosiy huquqiy me'yor sifatida qaralsa-da, milliy qonunchilikdagi farqlar, jamoat tartibi va siyosiy ta'sir kabi omillar arbitraj jarayonining samaradorligini kamaytiradi. Ushbu muammolarni hal qilish uchun xalqaro hamkorlikni kuchaytirish, milliy qonunchilikni uyg'unlashtirish va sud tizimlarining mustaqilligini ta'minlash lozim.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :**

1.Xalqaro tijorat arbitraji tamoyillari va amaliyoti . Margaret L.Mozes. 2020 –yil, 250-bet

2.1958 yilgi Xorijiy arbitraj qarorlarini tan olish va ijro etish to'g'risidagi Nyu -York konvensiyasi.

3. UNCITRAL arbitraj qoidalari.

4. Milliy qonunchilikka oid xalqaro huquqiy manbalar.

5.Gulyamov, Said, and Mokhinur Bakhramova. "Digitalization of International Arbitration and Dispute Resolution by Artificial Intelligence" . World Bulletin of

Management and Law

- 6."Enforcing Arbitration Awards: A Practical Guide" by the International Bar Association
7. International Arbitration Loses Its Grip 96 A.B.A.
8. Xalqaro arbitraj to'g'risidagi qonun
- 9 ."The Challenges of Enforcing International Arbitration Awards" by Michael W. Goldstein and Sean P. Casey, published in The National Law Review.
- 10."Challenges to the Enforcement of International Commercial Arbitration Awards" by Nadia Darwazeh, published in The European Journal of International Law.